

# **Germaniya Federativ Respublikasiga Andijon Mashinasozlik Instituti Rektori xizmat safari**

## **XISOBOT**

### **Umid Muxtaraliyevich xizmat safari bilan Germaniyada**

Andijon mashinasozlik instituti rektori Umid Turdialihev xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda korxonalar bilan o'zaro hamkorlik masalalarini muhokama qilish maqsadida Germaniya davlatiga tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida institut rektori, 26-iyun kuni Glauchau shahridagi Berufsakademie Sachsen oliygohi hamda Bau Building Sachsen professional ta'lim markazida bo'lib, dastlab rektor muassasalardagi ta'lim tizimi, moddiy-texnik bazasi, talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlari va o'quv jarayonlari bilan tanishdi. Shundan so'ng rektorimiz va Berufsakademie Sachsen oliygohi direktor o'rinnbosari, professor Nils Frohlich va Avtomobil menejmenti bo'limi boshlig'i Torsten Olischewski hamda Bau Bilding Sachsen professional ta'lim markazi rahbari Michael Wieczorek bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Uchrashuv davomida ta'lim va tadqiqot masalari, hamkorlikda xalqaro loyihalarda ish olib borish, birgalikda ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha muzokaralar bo'lib o'tdi.



## **Rektor ilg‘or tajribalarni ta’lim muhitimizga moslashtirish maqsadida Germaniya tajribasi bilan tanishdi**

27-iyun kuni Umid Turdaliyev Germanyaning Bau Bilding Sachsen-Anhalt kasbga tayyorlash va o‘qitish bo‘yicha markazga tashrif buyurdi. Tashrif davomida rektor markaz direktori Koenig Kerstin bilan uchrashib, muassasa ta’lim tizimi haqidagi tajribalarini o’rgandi. Uchrashuvda AndMI institutimiz va markaz o’rtasida ta’lim va tadqiqot sohasida hamkorlik qilish bo‘yicha muzokara olib borildi.

Muzokaralar jarayonida shular ma’lum bo’ldiki, Bau Bilding Sachsen-Anhalt Germaniyadagi eng ilg‘or va muvaffaqiyatli ta’lim muassasalaridan biri ekanligi, qurilish va arxitektura sohasi texnikalarini ishlab chiqarish va ta’mirlashda malakali ishchi-mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashganligi. Innovatsion dasturlari va amaliy o‘qitish metodikasi ularni sohada yetakchilardan biriga aylanishiga sabab bo’lgan.



27.06.2023

## **Andijonda Germaniya tajribasi asosida professional ta'lim markazi tashkil etiladi**

Institutimiz rektorining Germaniyaga xizmat safari doirasida 28-iyun kuni ham bir qator uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Jumladan, dastlab Umid Turdialihev Merserburg University of Applied Sciences umiversitetiga tashrif buyurdi. Universitet moddiy-texnika bazasi, ta'lim jarayonlari bilan tanishuvdan so'ng, ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, professor Habil Doreen Pick hamda oliygoh professorlari ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. Muzokaralar davomida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va boshqa yo'nalishlarda birgalikda ish olib borish bo'yicha hamkorlik memorandumi imzolashga kelishildi. Hamkorlik doirasida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha rejalar tuzildi.

Kunning ikkinchi yarmida A.G.Gunter Papenburg kompaniyasi raxbariyati bilan Andijon shahrida professional ta'lim markazini tashkil etish bo'yicha muzokaralar olib borildi hamda kelishuv shartnomalari imzolandi.



29.06.2023

## **Umid Turdialihev Volkswagen avtomobil zavodiga tashrif buyurdi**

Andijon mashinasozlik instituti rektori Germaniya xizmat safari doirasida Wolsburg shahridagi Volkswagen avtomobil ishlab chiqarish korxonasiiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida, Umid Turdialihev bevosita ishlab chiqarish korxonasi hamda korxonada tashkil etilgan dual ta'lif bilan tanishdi. Kelajakda, ushbu dual ta'lif tizimini yurtimizda tadbiq qilish uchun o'rganishlar olib borildi.

Ma'lumot uchun: Volkswagen korporasiya tizimiga Volvo, Porsche, Audi, Skoda, Seat, MAN kabi avto ulovlarni ishlab chiqarish korxonalari qamrab olingan bo'lib, ushbu tizimda jami 250 mingdan ortiq ishchi xodimlar faoliyat yuritmoqda. Birgina Volkswagen zavodida bugungi kunda 65 mingdan ziyod ishchilar mehnat faoliyatlarini olib bormoqda.



29.06.2023

## **Umid Muxtaraliyevichning Germaniyadagi Komatsu kompaniyasiga tashrifi**

30-iyun kuni rektor Germaniyaning Hannover (Ganover) shahridagi Komatsu kompaniyasining ogir yuk ko'taruvchi texnikalarni (og'irligi 36 tonnagacha) ishlab chiqarish korxonasida bo'ldi. Korxonaga tashrif mobaynida mutaxassilar bilan hamkorlik masalalari yuzasidan muhokamalar bo'lib o'tdi. Unda hamkorlikda kadrlar tayyolash va institutimiz bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi. Kelgusida hamkorlikni rivojlantirish hamda birgalikda olib boriladigan ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha qo'shimcha uchrashuvlar o'tkazilishi belgilab olindi.



30.06.2023